

**ROSSIYA TOMONIDAN BUXORONING QONGA BOTIRILISHI****Juliboyev Alimardon Abdulmajid o'g'li**

Student of the history education department of the Faculty of History of KSPI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13133384>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada biz Rossiya Buxoro amirligining tugatilishi va undagi boshqa siyosiy vaziyatlarni tahlil etamiz. O'tgan asr boshlarida Buxoroda ijtimoiy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y beradi. Buxoro xalqi rus mustamlakachiligi va o'rta asr boshqaruvini amalga oshirayotgan amir istibdodiga ham qarshi kurashar edilar. Shu bilan birga Buxoroning ijtimoiy hayotida ruhoniylar katta ta'sirga ega edi. XX asr boshiga kelib Rossiya Buxoroni qaram qilish uchun astoydil harakat qila boshlaydi. Biz ko'pgina manbalarni ishga solgan holda ushbu jarayonni tahlil etishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, hukumat, imperiya, qizil armiya, siyosiy vaziyat, ijtimoiy hayot, elchilik, komissiya.

**THE BLOOD DROWNING OF BUKHARA BY RUSSIA**

*Abstract.* In this article, we will analyze the dissolution of the Russian Bukhara Emirate and other political situations in it. At the beginning of the last century, great changes took place in the social life of Bukhara. The people of Bukhara also fought against the Russian colonialism and the tyranny of the emirs who were implementing medieval rule. At the same time, priests had a great influence in the social life of Bukhara. By the beginning of the 20th century, Russia began to make serious efforts to annex Bukhara. We tried to analyze this process using many sources.

**Key words:** Bukhara, government, empire, red army, political situation, social life, embassy, commission.

**КРОВАВОЕ ЗАТОПЛЕНИЕ БУХАРЫ РОССИЕЙ**

*Аннотация.* В данной статье мы анализируем распад Русского Бухарского эмирата и другие политические ситуации в нем. В начале прошлого века в общественной жизни Бухары произошли большие перемены. Жители Бухары также боролись против российского колониализма и тирании эмиров, осуществлявших средневековое правление. В то же время большое влияние в общественной жизни Бухары имели священники. К началу XX века Россия начала предпринимать серьезные усилия по аннексии Бухары. Мы попытались проанализировать этот процесс, используя множество источников.

**Ключевые слова:** Бухара, правительство, империя, Красная армия, политическая ситуация, общественная жизнь, посольство, комиссия.

Amir Olimxon 1920-yil 2-iyulda RSFSR bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish maqsadida V.Lenin va L.Troskiy huzuriga general Mahdixon Hoji Jo'rabek to'qsoba, G'aybulla Xo'ja, Hoji Mirzo, Mirzo Navro'zbeylardan iborat favqulodda elchilarni jo'natdi[1]. Xuddi shu kuni qizil askarlar tomonidan Kogonda Buxoro amirligiga tegishli bino va zakotxona keltirilayotgan rus askarlarini joylashtirish maqsadida bosib olindi[2]. Shu yil 4-iyulda V.Kuybishev Buxoro vakillari bilan uchrashuvda Sharq davlatlari hukumatlari mustaqillikni istasalar, sovet Rossiyasi bilan do'stona munosabatda bo'lishlari shartligini, imperialistik davlatlar bilan yaqinlashishga har qanday urinish ularning mustaqilligini tugatilishiga olib kelishini, ochiqdan-ochiq ta'kidladi. RSFSR tashqi ishlar xalq komissarligining O'rta Osiyo bo'yicha muxtor vakili 1920-yil 14-iyulda Buxoro amiriga Turkiston bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlariga rahna solayotgan kishilarni jazolash uchun aralash komissiya tuzishni talab qilib, nota topshirdi.

Toshkentda nashr etiladigan "Izvestiya" gazetasida 1920-yil 25-iyulda Buxoro fuqarolaridan 1500 kishining RKP MK va hukumat idoralariga topshirgan "Buxoro xalqining og'ir ahvoli haqidagi" maktubi e'lon qilindi. Unda aholining og'ir ahvoli, mamlakat ichidagi norozilik kayfiyatlari, Angliya bilan olib borilayotgan muzokaralar va shikoyat, Rossiya ezilgan xalqlar huquqlarining amaldagi himoyachisi bo'lishini amalda ko'rsatmog'i, kerakligi haqida gap boradi[3].

Butun Rossiya MIK Turkiston ishlari komissiyasining 1920-yil 3-avgustdagi yig'ilishida Yosh buxoroliklar va Buxoro kommunistik partiyalarining qo'shilishi haqida qaror qabul qilindi.

Bolsheviklar sarkardasi M. Frunze 1920-yil 15-avgustda Toshkentda chiqadigan "Железный путь" haftaligining 4-sonida e'lon qilingan "Rossiya va Buxoro" nomli maqolasida Buxoro bilan sovet Rossiyasi o'rtasidagi munosabatlarda uning ichki ishlariga aralashmaslikning iloji yo'qligini, xas-po'slashga harakat qildi. RSFSR Buxoroga qarshi urushga barcha vositalarni ishga solib tayyorgarlikni avj oldirdi. Toshkentda nashr etiladigan "Известия Турк ЦИК" gazetasida 1920-yil 25-iyulda 15 000 buxorolik dehqonning go'yoki, sovet hukumatidan yordam so'rab qilgan murojaati e'lon qilindi. 1920-yil avgust oxirlarida ish boshlagan Sharq xalqlari I s'yezdida ham O'rta Osiyodagi mavjud hukumatlarni ag'darib tashlash g'oyasi ilgari surildi.

Sovet hukumati Buxoro Rossiyaga nisbatan dushmanlik holatida, Turkistonga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rmoqda, deb, targ'ibot ishlarini kuchaytirib, 1920-yil yozida yirik armiya qismlarini amirlik chegaralariga keltirdi. Buxoro chegaralariga yaqin bo'lgan Turkiston shaharlaridagi garnizonlar harbiy jihatdan mustahkamlandi[4]. RSFSR hukumati 1919-yil dekabrda Turkiston bilan chegaradosh davlatlarda jumladan, Buxoro va Xivada mavjud

hokimiyatlarni agʻdarib tashlash maqsadida targʻibot-tashviqot ishlarini olib borish uchun baynalminal targʻibot kengashini tuzdi.

1920-yil yanvarda Turkistonda tashkil etilgan Yosh buxoroliklar partiyasi mazkur tashkilot tomonidan 1920-yilning 6-fevraldan boshlab Buxoro hududida amir hokimiyatiga qarshi targʻibot ishlarini olib borish vakolatiga ega boʻldi. Turkkomissiya 1920-yil 12-fevralda “Yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston byurosi”ni tashkil etdi. “Совинтерпроп” 1920-yil 25-martda Buxoro kommunistlarini amirga qarshi kurashda Yosh buxoroliklar bilan kelishgan holda harakat qilishlari haqida qaror qabul qildi. Turkkomissiya amirlikka qarshi muxolifat kuchlarini jipslashtirish, Buxoroda toʻntarishni amalga oshirish bilan bevosita shugʻullandi. 1920-yil 24-iyunda Buxoroda qurolli qoʻzgʻolonni tayyorlash boʻyicha harbiy-inqilobiy byuro tuzilib, uning tarkibiga Turkkomissiya aʼzolari V.Kuybishev, M. Frunze, Turkiston kommunistlari kotibi N.Toʻraqulov, BKP (b) MK kotibi N. Xusainov, yosh buxoroliklar rahbari F. Xoʻjayev va boshqalar kirgan edi.

Turkkomissiyasining 1920-yil 30-iyul kungi majlisida RSFSRning siyosiy, iqtisodiy va harbiy koʻmagida Buxoroda toʻntarishni amalga oshirish haqida qaror qabul qilindi. 1920-yil 29-iyulda RKP (b) MKning tashkiliy byurosi amir hokimiyatini tugatishda Yosh buxoroliklar partiyasiga yordam koʻrsatish haqida qaror qabul qildi. Turkkomissiya V.Kuybishev, M.Frunze, Geller, N.Toʻraqulov, I.Husainov, F.Xoʻjayevlardan iborat harbiy inqilobiy byuro tuzib, unga Buxoroda qurolli qoʻzgʻolonni tayyorlash va amalga oshirish vazifasi topshirildi. 1920-yil 24-iyunidan 25-avgustigacha boʻlgan muddatda mazkur byuro tomonidan toʻntarishdan keyin eʼlon qilinadigan chaqiriqlar, deklaratsiyalar, dekretlar loyihalari tayyorlandi. 1920-yil 10-avgustda Buxoro Muvaqqat inqilobiy-demokratik hukumatini tuzish haqida qaror qabul qilindi. 1920-yil 16-avgustda BKPning Chorjoʻyda boʻlib oʻtgan 4 sʼyezdida Buxoro amirining hokimiyatini agʻdarib tashlash masalasi koʻrib chiqilib, Turkkomissiyadan yordam soʻraldi. Turkkomissiyaning 1920-yil 25-avgustda boʻlib oʻtgan yigʻilishida Buxoro amirligini tugatish masalasi uzil-kesil hal qilindi. Shuningdek, ushbu yigʻilishda amirlik tuzumi tugatilgach, Buxoro va RSFSR oʻrtasida yagona bojxona tartiblarining oʻrnatilishi, RSFSR bilan tuzilajak Buxoro Respublikasining kelishgan holda iqtisodiy siyosat yuritishi, Rossiya bilan mustahkam harbiy-siyosiy ittifoqi haqida qarorlar qabul qilindi. Koʻrinib turibdiki, RSFSR bolsheviklarining asl maqsadlari amir hokimiyatini tugatish orqali Buxoro xalqini asoratga solish, uning boyliklari ustidan egalik qilish boʻlgan edi.

Turkkomissiya, Turkiston fronti rahbarlari 1920-yil 31-iyulda Moskvaga yuborgan mutlaqo maxfiy maʼlumotida 1200 kishidan iborat uch xildagi Buxoro qizil armiyasini tuzish ishlari yakunlanganligi, joylarda inqilobiy faoliyatni kuchaytirish choralari koʻrilayotganligi, boʻlgʻusi Buxoro hukumatining umumiy faoliyat dasturi, yaqin kelajakdagi tadbirlari dasturi

ishlab chiqilganligi, hukumat tarkibi aniqlanib, eng muhim organlar tuzilganligi, yangi hukumat tarkibi haqida yaqin orada e'lon qilinadigan chaqiriqlar, dekretlar loyihalari ishlab chiqilganligi ma'lum qilindi. Buxoro amirligini tugatish operatsiyasi inqilobiy portlash ko'rinishida, ya'ni musulmon askarlar ishtirokida rus qo'shinlari tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirildi. Rus bolsheviklari Buxoro amirligini tugatish jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rdilar. Bolsheviklar diplomatlarining sa'y-harakatlari tufayli amir hukumati xalqaro maydonda yakkalab qo'yildi, tashqaridan bo'ladigan har qanday yordamdan mahrum etildi. Turkkomissiya rahbarlarining Moskvaga yuborgan ma'lumotlarida Turkiya rahbarlaridan biri Jamol posho bilan suhbatda Buxoro amirligining tugatilishi Anqara hukumati tomonidan hech qanday e'tirozga sabab bo'lmasligi, Afg'oniston tomonidan Buxoroga hech qanday yordam ko'rsatilmamasligi aniq ekanligi, ma'lum qilindi. Bundan tashqari hali Buxoro amirligi ag'darilmasdan turib, Turkkomissiya a'zosi V.Kuybishev imzolagan 9 kishidan iborat Buxoroning yangi hukumati tarkibi ham tuzildi. M.Frunzening Moskvaga yuborilgan telegrammasi 1920-yil 10-avgustda RKP (b) Markaziy Qo'mitasi siyosiy byurosida muhokama qilinib, Buxoroga qarshi harbiy reja asosan ma'qullandi.

Siyosiy byuro ko'rsatmasida amirlikka qilinadigan hujum operatsiyalari faqat ma'lum darajada xalq nazariga tushgan Buxoro inqilobiy markazi mavjud bo'lgandagina sodir bo'lishi mumkin bu markaz hech bo'lmaganda bizning hududimizda bo'lib bizni ana shunday hujumga chorlashi lozim, deyilgan edi[5].

Turkkomissiya rahbarlari harbiy rejasiga ko'ra Chorjo'yda ko'tarilgan qo'zg'olon qizil armiyaning Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlari uchun signal bo'lishi lozim edi. Chorjo'y qo'zg'oloni boshlanishi bilan M.Frunze Turkiston fronti qo'shinlariga Rossiyaning butun harbiy qudrati bilan Buxoro amirligiga qarshi hujum boshlashi haqida buyruq berdi. 1920-yil 28-avgustda V.Kuybishev Toshkent kommunistlari yig'ilishida so'zga chiqib, Buxoro amirligi so'zsiz yakson qilinadi, deb bayonot berdi. M. Frunze tomonidan ishlab chiqilgan Buxoro amirligini tugatish harbiy operatsiyasi kuchli va qo'qqisdan qilinadigan hujumga asoslangan edi. Lekin Buxoro shahrini bir zarba bilan bosib olish rejasi amalga oshmadi. Birinchi sharqiy musulmon polki "qo'zg'olon ko'targan Buxoro aholisi" sifatida jangga kiritildi. Turkiston fronti qo'shinlarining 30, 31-avgust kunlari Buxoroga qilgan hujumlari ham samara bermadi. Qarshi darvozasi vayron qilingach, mudofaa devori portlatildi, shahar to'xtovsiz ravishda yerdan va osmondan bombardimon qilindi. "Adolatni tiklash" shiori ostida bolsheviklar ko'hna Buxoroga "asr bosqini"ni uyushtirdilar. Bolsheviklar qo'shinining Buxoro amirligiga harbiy hujumi ularning "Biz Sharqda ozodlik missiyasini bajarmoqdamiz", degan da'volari mutlaqo asossizligini ko'rsatdi. Moskva va Toshkentda ishlab chiqilgan rejaga ko'ra, Buxoro amirligiga birinchi zarba

Yosh buxoroliklar va buxorolik kommunistlardan iborat Buxoro oppozitsiyasi berishi, shundan so'ng ularning rasmiy iltimosiga ko'ra, qizil armiya asosiy qismlari yordamga kelishi lozim edi.

Buxoro amirligiga qarshi urushga qizg'in tayyorgarlik ko'rildi. Harbiy-inqilobiy byuro targ'ibot va tashviqot ishlariga alohida ahamiyat berildi. 1920-yil 10-avgustda Buxoroning Muvaqqat inqilobiy qo'mitasi va Nozirlar Kengashi tashkil etildi. Turkomissiya majlisida 23-avgustda "Buxoro inqilobiy hukumati"ning dasturi muhokama qilinib, qabul qilindi. 1920-yil avgustning o'rtalarida Chorjo'yda Buxoro kommunistik partiyasining IV s'yezdi o'tkazilib, unda qurolli qo'zg'olon Said Olimxon hokimiyatini ag'darib tashlashning asosiy vositasi, degan, qaror qabul qilindi. 1920-yil 23-avgustda Beshim Sardor qo'mondonligidagi turkmanlar polki amirlik tuzumiga qarshi urushni boshlab berdi. 29-avgustda Eski Chorjo'y bosib olindi. Beshim Sardor boshchiligidagi inqilobiy qo'mita yordam so'rab sovet hukumatiga murojaat qildi. Shu kuni "qo'zg'olon ko'targan Buxoro xalqiga" yordam ko'rsatishga kirishish uchun Turkiston fronti qo'shinlariga buyruq berildi.

"Inqilobiy Buxoro"ga yordam ko'rsatish uchun yirik sovet harbiy kuchlari harakatga keltirildi. Sovet rasmiy ma'lumotiga ko'ra, bosqinchi armiya 7000 miltiq va qilich, 40 ta to'p, 230 ga yaqin pulemyot, 10 ta zirxli avtomobil, 5 ta zirxli poyezd, 12 ta samoloyot bor edi[6]. Buxoroga qarshi harbiy yurishga deyarli 5000 kishidan tashkil topgan buxorolik inqilobiy tuzilmalar xam qatnashdi. Amirlik qo'shinlari harbiy qurol yarog' jixatidan bosqinchi armiyaga teng kela olmasdi.

O'z navbatida bosqinchi qizil qo'shin grajdanlar urushi yillarida Rossiyaning turli hududlarida, shuningdek, Polshaga qilingan harbiy harakatlarda, Turkistondagi istiqloqlchilar harakatini bostirishda, Xiva xonligini tugatishda katta tajriba to'plagan edi.

Bolsheviklar hukumatining harbiy jihatdan ancha kuchli bo'lgan harbiy kuchlari 1920-yil 28-avgustdan 29-avgustga o'tar kechasi Buxoro "inqilobiy tuzilmalari" ishtirokida amirlik hududiga shiddat bilan bostirib kirdilar. Ular Qarshi, Shahrisabz, Kitobni bosib olib, Buxoroga yaqinlashdilar.

Mamlakat poytaxti uchun bo'lgan janglarda amir qo'shinlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdi, janglarda shahar aholisi ham ishtirok etdi. Bolsheviklar dohiysi V. Lenin ko'rsatmasiga ko'ra, M. Frunze qo'shinlari Buxoro Arkiga yosh buxoroliklar qismlari, general Chanishev boshliq tatar askarlaridan keyin hujumga o'tishi kerak edi.

Buxoroning so'nggi amiri Olimxon o'z xotiralarida shunday yozadi: "ular (bolsheviklar) o'zlarining bronevik va bronepezdlarida oldinga harakatlanib, bir vaqtning o'zida zambaraklardan o'q uzildi... yettita aeroplan Buxoroni bombardimon qila boshladi"[7].

M. Frunze boshchiligidagi qizil qo'shinlar Buxoro shahrini vayronaga aylantirganligi voqealar ishtirokchisi Mashiniskiy "Buxoroda inqilob uchun kurash" deb nomlangan

bayonamosida shunday deb yozgan edi: Buxoro bo‘ylab bir necha million o‘q va bir necha ming zambarakning yondiruvchi snaryadlari otilgan.

Ularning ichida bir qancha kimyoviylari ham bo‘lgan. “Buxoro markazi va uning vokzalga yaqin bo‘lgan joylari butunlay vayron bo‘lgan. Masjidlar jiddiy zararlangan, ulardan omon qolgan ikki uchasi oshxona va kazarmalarga aylantirilgan”[8]. 4 kun davom etgan qonli janglardan so‘ng amirlikning so‘nggi tayanchi Ark bosib olindi. Inqilob sharofati bilan eski Buxoro aholisining anchagina qismi, shuningdek, mudofa devorlari orqasida jon saqlashga harakat qilgan atrof kishilar aholisining ancha qismi halok bo‘ldi. O‘liklar soni shu qadar ko‘p ediki, ularni yig‘ishtirib olishga ulgurmas edi. Qadimiy Buxoroning deyarli yarmi yonib bo‘lgan asosiy qismi harobaga aylantirilgan edi. Buxoro amirligiga qilingan harbiy harakatlarda Turkiston fronti hal qiluvchi rol o‘ynadi. Mahalliy tarixchi Muhammad Ali Baljuvoni bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan hunrezlikni “kichik qiyomat” – “qiyomati asar” deb aytgan edi[9]. Uning keltirishicha, 34 guzar, 3 mingdan ortiq do‘kon, 20 ga yaqin saroy, 29 masjid yonib harob bo‘lgan 3000 yaqin hovli yonib kul bo‘ldi. Poytaxt ishg‘ol etilishidang biroz vaqt ilgari amir Olimxon o‘z yaqinlari bilan shaharni tashlab chiqqan edi. Buxoroning istilo qilinishi sovet tarix fanida despotizmning tugatilishi, qizil armiyaning qo‘zg‘olon ko‘targan xalqqa yordami sifatida talqin etildi. Lekin istiqbolimiz sharofati bilan birlamchi manbalarning o‘rgatilishi Buxoro bosqinini to‘la idrok etish imkonini berdi. 1920-yilning 31-avgust va 1-sentyabr kunlari Buxoro ustiga ikki yuzdan ortiq jangovar bombalar aeroplanlardan yog‘dirildi. Masjidlar otxonalarga, qizil askarlarning qo‘rg‘onlariga aylantirildi, muqaddas Qur‘on varaqlari papiros o‘rash uchun ishlatildi[10].

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyati qadimgi Buxoroni bosib olish orqali bu yerda misli ko‘rilmagan vahshiylik va xunrezlikni amalga oshirdi. Tarixiy madaniy yodgorliklar vayron qilindi. Minglab begunoh kishilarning yostig‘ini quritdi, xalq mehnati evaziga to‘plangan behisob boylıklar zo‘rovonlik bilan tashib ketildi. Tarix sabog‘i shuni ko‘rsatadiki, sovet mustamlakachilari o‘z maqsadlariga erishish uchun eng qabih, eng jirkanch usullarni qo‘lladilar.

## REFERENCES

1. Амир Саййид Олимхон Бухоро халкининг хасрати тарихи Т.: “Фан”, 1991. – Б. 14.
2. Медведов.В. Нечаянная революция. “Дружба Народов”, 1992 г. №1, стр. 156.
3. История Бухарская Народная Советская Республика. Сб. Мат-в Т 1976. Стр. 22-23.
4. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида Тошкент.: 2000. – Б.124-125.
5. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида Тошкент.: 2000. – Б.126.
6. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида Тошкент.: 2000. – Б.127.
7. Амир Саййид Олимхон Бухоро халкининг хасрати тарихи. Тошкент.: 1991. – Б.25.

8. Холбоев С. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. Тошкент.: 2008. – Б.38.
9. Муҳаммад Али Балжувоний “Тарихи Нофеий” (Фойдали тарих) Тошкент.: 2001. – Б. 64.
10. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент.: 2002. - Б.15.